

## BUYUK ISTE'DOD VA O'TKIR QALAM SOHIBI – ALISHER NAVOIY

*4-kurs talabasi Sh.O. Ostonova*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada buyuk o'zbek shoiri va mutafakkiri, o'zbek adabiy tilining asoschisi Alisher Navoiy tarjimai holi, u yozgan o'lmas asarlari, ulardan ba'zilarining mazmun-mohiyati, badiiy jozibasi haqida atroficha fikr yuritiladi.

**Tayanch tushunchalar:** Alisher Navoiy, g'azal, shoir, Xamsa, devon, turkiy tillar, adabiyot.

**Abstract:** In this article, the biography of Alisher Navoi, the great Uzbek poet and thinker, the founder of the Uzbek literary language, the immortal works he wrote, the content and artistic appeal of some of them are discussed.

**Basic concepts:** Alisher Navoi, ghazal, poet, Khamsa, devan, Turkic languages, literature.

**Аннотация:** В данной статье рассматривается биография Алишера Навои, великого узбекского поэта и мыслителя, основоположника узбекского литературного языка, написанные им бессмертные произведения, содержание и художественная привлекательность некоторых из них.

**Ключевые слова:** Алишер Навои, газель, поэт, хамса, деван, тюркские языки, литература.

Alisher Navoiy o'zbek she'riyatiga, balki o'nlab turkiy tillar adabiyotiga ulkan hissa qo'shgan ulug' siymodir. Albatta, bu borada so'z yuritar ekanmiz, muhtaram birinchi prezidentimiz I.A.Karimovning quyidagi jumalari beixtiyor yodimizga tushadi: "Agar bu zotni avliyo desak, u - avliyolarning avliyosi, mutafakkir desak - mutafakkirlarning mutafakkiri, shoir desak - shoirlarning sultonidir. Inson qalbining quvonchiyu qayg'usini, ezgulik va hayot mazmunini Navoiydek teran ifoda etgan shoir jahon adabiyoti tarixida kamdan- kam topiladi." [1] Chindan ham biz bu buyuk alloma haqida qancha fikr yuritsak, qancha ulug'lasak shuncha oz. Birgina o'zimizda emas balki, g'arbiy davlatlarda ham chig'atoy she'riyatining buyuk siymosi sifatida, sharqiy mamlakatlarda esa "nizomi millati va din" unvoni bilan qadrlanib kelinadi.

Navoiyning bolalik chog'laridan bilimga bo'lgan tashnaligini Fariddin Attorning "**Mantiq ut-tayr**" ("**Qush nutqi**") dostonini sevib mutoala qilganligidan, ota-onasining yashirib qo'yganligiga qaramasdan, uni allaqachon yod olganligining hamda 7 yoshlarida buyuk muhaddisimiz Buxoriy hazratlarining olti mingdan ziyod hadisi shariflarini yoddan bilganliklarining guvohi bo'lamiz. Ulug' shoir zamondoshlaridan biri bo'lmish podshoh Husayn Boyqaro saroyida oliy martabali lavozimlardan biri sanalgan "muqarrabi hazrati sultoniy" lavozimida xizmatda bo'lgan hamda u zot bilan ham do'st, ham maslahatgo'y bo'lishganligini, shoirning shohga bir

muammo bo'yicha ketma-ket yetti martagacha murojaat qila olganligidan anglaymiz. Buyuk davlat arbobi shoh va shoir Zahiriddin Muhammad Bobur Navoiy haqida o'zining mashhur "Boburnoma" kitobida *"Alisherbek naziri yo 'q kishi edi. Turkiy til bila to she'r aytubturlar, hech kim oncha ko'p va xo'b aytqon ema"* deya fikr bildirib o'tgan [2]. Yana shuni qo'shimcha qilish mumkin, Seul, Vashington, Moskva, Dushanbe, Minsk, Tokio hamda Bokudek yirik shaharlarda buyuk bobomiz Alisher Navoiyga ehtirom sifatida hakallari qad rostlagan.

Navoiyning she'riyati borasida so'z ochilganda beixtiyor shoirning taronaga aylangan go'zal misralari yodga tushadi. Navoiy umrini she'riyatga bag'ishladi, doimo ijodda bo'ldi. 7-8 yoshliklaridan g'azallar yoza boshladi. Shoirning tinimsiz say harakatlari natijasida o'zbek lirikasi batamom yangi bir bosqichga ko'tarildi. Besh dostonan iborat bo'lgan katta asari "Xamsa" Navoiy ijodining shoh durdona asari hisoblanadi. Besh doston biri bo'lmish "Farxod va Shirin" dostoni yaqinda Ukrainada tarjima qilindi. Bundan ko'rinib turibdiki, Navoiyning ijodi haligacha hammadada katta qiziqish uyg'otib kelmoqda. Hatto Gruzin shoiri Sitsushbining shu vaqtgacha Nizomiyning "Xamsa"si asosida yozilgan deb topilgan "Yetti go'zal" asari aslida ulug' qalam sohibi Navoiyning asari asosida yozilganligi aniqlandi. Yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, Alisher Navoiyning ijodi nafaqat bizning adabiyotimizga, balki boshqa millat vakillarining ijodiga ham salmog'licha ta'sir o'tkazib kelgan. Shoirning g'azallarini o'qir ekanmiz, ularda o'zgacha ohangrabo hamda joziba borligini anglaymiz. Navoiyning she'riyati borasida so'z ochilganda beixtiyor shoirning taronaga aylangan go'zal misralari yodga tushadi. Shoirning g'azallaridagi ohangrabo, jo'shqinlik, insonni chuqur o'yg'a solguvchi mohiyati kuyda o'z ifodasini topishga undaydi. El orasida mashhur, tilga oson bo'lgan "Kelmadi" radifli g'azali ko'plab ijodkorlar tomonidan "Munojot" kuyiga solib kuylanadi. O'zbekiston Qahramoni, O'zbekiston xalq shoiri Abdulla Oripovning «Munojotni tinglab» she'ri shu qo'shiq ta'sirida bitilgan. Bu she'r:

Kuyi shunday bo'lsa, g'amning o'ziga

Qanday chiday oldi ekan odamzod?! – deya tugallanadi.

"Munojot" kuyining og'ir-bosiqiligi, g'am-iztirob ruhiga moyilligi bilan g'azal mazmunidagi oshiqning yor vasliga yetolmaganidan chekayotgan g'am-iztiroblari o'rtasida kuchli hamohanglik bor [3]. Navoiyning she'riyatida e'tiborni tortadigan jihatlardan yana biri shuki, bir o'qiganda yor ishqida, yor visolida kuylangan bir oshiqning misralari deb o'ylagan g'azallaringiz aslida, Allohning ishqida, uning hajrida yongan bir devonaning qog'ozga bitilgan ohu zorlaridir. Bunday misralarning tub mohiyatini anglab tushunish uchun, albatta, kitobsevar qalb ko'zlari bilan o'qimog'i kerak. Misol uchun yuqorida keltirilgan "Kelmadi" g'azalidagi misralarga e'tibor qaratsak, unda yuqorida aytilgan fikrlar isbotini ko'ramiz.

Tolibi sodiq topilmas, yo'qsa kim qo'ydi qadam,

Yo'lg'akim, avvalqadam ma'shuqe o'tru kelmadi.

Bu g'azalda shoir ishq mavzusi bilan birga falsafiy-tasaffuviy masalani kuylaydi. Baytdagi "yo'l" so'zi tasavvufni anglatadi, ya'ni Allohga bo'lgan go'zal ishqni.

Mustaqil O'zbekistonda Navoiyni anglash davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Har yili shoirning tavallud ayyomi munosabiti bilan yurtimizda keng miqyosda Navoiyxonlik, g'azalxonlik tadbirlari o'tkaziladi. Yurtimizda buyuk shoirga ehtirom sifatida eng yirik viloyatlardan biriga va uning markaziy shahriga, O'zbekiston Davlat mukofotiga va talabalar uchun davlat stipendiyasiga, Oliy o'quv yurtlaridan biriga, O'zbekiston milliy kutubxonasiga, O'zbekiston Fanlar akademiyasiga, Toshkentdagi metro bekatiga hamda ko'plab ko'chalar nomlariga Alisher Navoiy nomi berilgan.

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, Navoiyning ijodini qancha o'rgansak ham shuncha ozdir, o'rganib borish jarayonida, albatta, g'azallarning biz bilmagan tub mohiyatlarini anglab boraveramiz. Alisher Navoiyning tilimizning rivoji uchun qilgan say harakatlari doimo yodimizda va qalbimizdadir.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Islom Karimov. Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch. Toshkent "Ma'naviyat" 2008.
2. Burobiya Radjabova. Temuriylar renessansi va Alisher Navoiy ("Boburnoma" misolida).
3. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 8-sinf uchun darslik-majmua. G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi Toshkent – 2014